

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA  
QILISH SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI  
(QO'QON SHAHRI MISOLIDA)**  
*Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o'g'li,  
Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida davlatimiz tomonidan aholining kam ta'minlangan qismini himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan ishlarining Qo'qon shahri misolida ko'rib chiqamiz. Maqolada aholining ehtiyojmand qismi uchun yaratilgan keng imkoniyatlar tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: mustaqillik, ijtimoiy himoya, moddiy yordam, insonparvarlik yordami, qaror, farmon, farmoyish.*

**THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF REFORMS IN THE FIELD OF SOCIAL  
PROTECTION OF THE POPULATION IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE (IN  
THE EXAMPLE OF THE CITY OF KOKON)**

*Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o'g'li,  
doctoral student of Fergana State University*

*Abstract: In this article, in the first years of independence, we will consider the work carried out by our state in order to protect the poor part of the population on the example of the city of Kokand. The article analyzes the wide range of opportunities created for the needy part of the population.*

*Key words: independence, social protection, material aid, humanitarian aid, decision, decree, order.*

**МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ В ОБЛАСТИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ  
НАСЕЛЕНИЯ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА КОКОН)**  
*Кодиров Мухсинжон Мухторжон ўғли,  
докторантом Ферганского государственного университета.*

*Аннотация: В данной статье в первые годы независимости мы рассмотрим работу, проделанную нашим государством по защите бедной части населения на примере города Коканд. В статье анализируется широкий спектр возможностей, созданных для малообеспеченной части населения.*

*Ключевые слова: независимость, социальная защита, материальная помощь, гуманистическая помощь, решение, указ, приказ.*

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust kuni o'z mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng, oldida bir qancha muammolarni hal qilish masalasi kun tartibida o'z yechimini kutayotganligini bilar edi. Bunday muammolarni oldini olish maqsadida davlatimiz tomonidan aholini, ayniqsa uning kam ta'minlangan qismini faol himoya qilishga harakat qildi. Mamlakatimiz har bir sohada kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi orqali – aholining kam ta'minlangan qismini har tomonlama himoya qildi.

Ayniqsa, Qo'qon shahrida ham bu yo'nalishda faol harakatlar amalga oshirildi. Misol tariqasida, istiqlolning ilk yillarida uy-joylarni xususiy lashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 19-avgust kuni "Uy-joylar xususiy lashtirilishi munosabati bilan aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalashga oid qo'shimcha tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan [1; 107-b]. Ushbu farmonga ko'ra 9 ta toifa vakillariga imtiyoz berildi. Ularga quyidagilarni misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin:

- a) halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oilalari;
- b) baynalmilal jangchi nogironlari bo'lgan oilalar;
- d) 18 yoshgacha 7 va undan ortiq farzandlari bo'lgan ko'p bolali oilalar;
- e) farzand qilib olingan va vasiylilikka olingan ota-onasiz yetim bolalar;
- f) 3 va undan ortiq mehnatga yaroqsiz oila a'zolari bo'lgan boquvchisini yo'qotgan oilalar;
- g) ishlamaydigan I va II guruh nogironlariga;

- h) 1935-1950-yillarda qatag‘on qilingan va hozirgi paytda oqlangan kishilari bo‘lgan oilalar;  
 i) Chernobl halokati oqibatini tugatishda ishtirok etgan oila a’zolari bo‘lgan oilalar shular jumlasidandir [1; 107-108-b].

Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati davomida nafaqat davlatimiz balki qardosh davlatlarimiz tomonidan gumanitar yordamlar ham yuborilgan. Misol uchun, Qo‘qon shahriga 1992-yil 19-mart kuni Turkiya davlatidan yuborilgan insonparvarlik yordami yetib keldi. Ya’ni shahar aholisi uchun jami Navro‘z bayrami arafasida mehr-muruvvat yordami sifatida 4950 kg un, 3000 kg guruch, 3000 kg shakar, 999,18 kg margarin, 1501,5 kg semichka yog‘i, 400 kg quruq sut olib kelindi [2; 134-b]. Yuqorida keltirilgan insonparvarlik yordamini aholi orasida taqsimlash uchun shahar hokimining 1992-yil 20-martdagi qaroriga asosan 14 kishidan iborat “Insonparvarlik yordamini qabul qilishni tashkil etish va taqsimlash bo‘yicha ishchi guruhi” tashkil etildi [2; 134-135-b].

Ijtimoiy himoya aholining barcha qatlamlarini qamrab olganligini quyidagi faktlardan ham bilib olishimiz mumkin. Masalan, shahar bosh territorial tibbiy birlashmasi hisobidagi kam qonli ayollar va ikki yoshgacha bolasi bor oilalarga Qo‘qon shahar hokimining 1993-yil 19-martdagi “Kam qonli homilador ayollarga va ikki yoshgacha bolasi bor kam ta’minlangan oilalarga (bolasi uchun) bepul oziq-ovqat berish to‘g‘risida” 54-sonli farmoyishi qabul qilingan [3; 84-b]. Yuqorida keltirilgan farmoyish Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashining 1993-yil 3-iyundagi 88/17-XXI qaroriga asosan tasdiqlanib, amaliyatga joriy etilgan [3; 83-b]. Bepul tarqatiladigan oziq-ovqatlar uchun harajatlar sog‘liqni saqlash sohasida va umum shahar budgeti miqyosida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning asosan 2 xil yo‘nalishidan foydalanib kelinmoqda, ya’ni 1) aholi orasida oziq-ovqat va birlamchi mahsulotlar narxini maqbul tarzda qat’iy shaklda ushlab turish; 2) narxnavolar ko‘tarilishiga mos ravishda oylik ish haqi, stipendiya, nafaqa va pensiyalar miqdorini parallel ravishda oshirib borish. Davlatimiz tomonidan bir vaqtning o‘zida ikkala yo‘nalishda ham aholiga ayniqsa, uning kam ta’minlangan qismiga qulayliklar yaratish uchun harakatlar olib borilmoqda.

Yurtimizda 1990-yillarda aholini kam ta’minlangan qismini oziq-ovqat bilan ta’minalash ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular asosan to‘y va dafn marosimlari uchun davlatimiz tomonidan berib borilgan. Qo‘qon shahar hokimining 1993-yil 22-yanvardagi 11-f sonli farmoyishi [4; 50-b] va Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashining 1993-yil 3-iyundagi 89/17-XXI qaroriga asosan shahar aholisiga faqat nikoh to‘yi va dafn marosimlari uchun beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori tayinlangan [3; 76-b]. Rasmiy hujjatlarda belgilangan oziq-ovqatlar miqdori quyidagilardan iborat edi:

- 1) To‘y marosimlari uchun: a) un – 100 kg, guruch – 20 kg;
- 2) Dafn marosimlari uchun: a) un – 50 kg, guruch – 20 kg [4; 50-b].

Ushbu miqdordagi moddiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholiga yordam berish ishlari keyingi yillarda ham davom ettirilgan. Bunga misol tariqasida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Qo‘qon shahar hokimining 1995-yil 28-fevraldagi 31-f sonli farmoyishiga ko‘ra shahar aholisiga nikoh to‘yi va dafn marosimlari uchun beriladiga oziq-ovqat miqdori qayta ko‘rib chiqilgan, beriladigan oziq-ovqat midorlari soni ko‘paytirilgan [6; 84-b]:

1-jadval.

T/R	Mahsulot nomi	Nikoh to‘yi	Dafn marosimi
1	Un	100 kg	50 kg
2	Guruch	50 kg	20 kg
3	O‘simlik yog‘i	10 kg	5 kg
4	Shakar	5 kg	5 kg
5	Choy	1 kg	1 kg

Viloyat hokimining 1993-yil 21-dekabrdagi 337-f sonli farmoyishiga muvofiq Qo‘qon shahar

hokimining 1993-yil 247-f sonli va 1994-yil 27-yanvarda 18-f sonli farmoyishlari qabul qilingan. Unga ko'ra, shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan hisobga olingan yakka yolg'iz, o'zgalar yordamiga muhtoj faxriylar soni 388 nafarni tashkil etgan [5; 59-b]. Ularga imtiyozli oziq-ovqat uchun bir oyga 3,183,540 so'm kupon, jami 3 oylik miqdorga 9,550,620 so'm kupon mablag' ajratilgan [5; 60-b]. 1994-yil 14-aprelda qabul qilingan Qo'qon shahar hokimining 66-f sonli farmoyishiga ko'ra bir oylik oziq-ovqat uchun ajratilayotgan summa ko'tarilib, jami bir oylik harajat uchun – 4,495,756 so'm mablag' ajratilgan [5; 183-b]. O'zgalar parvarishiga muhtoj "Yakka-yolg'iz faxriylarga beriladigan kundalik zarur bo'ladigan mahsulotlar" ro'yhati shakllantirilgan bo'lib, ro'yhat quydagi mahsulotlardan iborat bo'lган.

2-jadval [5; 184-b].

T/R	Mahsulotlar	o'lchov birligi	Bahosi (so'm kupon)	Oylik me'yori	Jami narxi (so'm kupon)
1	Un	Kg	315	3 kg	945
2	O'simlik moyi	Kg	2000	0,5 kg	1000
3	Makaron	Kg	400	0,25 kg	100
4	Guruch	Kg	580	0,8 kg	464
5	Choy	Kg	4360	0,1 kg	436
6	Tuxum	10 dona	3500	5 dona	1750
7	Shakar	1 kg	1500	0,8 kg	1200
8	Kir sovun	1 dona	692	1 dona	692
9	Go'sht	1 kg	5000	1 kg	5000
Jami					11587

Yuqorida jadvalda keltirilgan mahsulotlar soni va miqdori yakka-yolg'iz ijtemoiy himoyaga muhtoj 1 nafar keksa faxriy uchun hisoblab chiqilgan.

Qo'qon shahar hokimi X.T.Mavlonkulovning 1995-yil 17-martda chiqargan 38-f sonli farmoyishiga ko'ra Navro'z bayrami munosabati bilan shahar hududida istiqomat qilayotgan ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarga tarqatish, ijtimoiy himoyaga muhtoj 230 ta oilaga moddiy yordam tariqasida oziq-ovqat mahsulotlarini bayram sovg'asi tayyorlanib va uni bayramarafasida fuqarolarga yetkazib berildi [6; 101-b]. Jami 230 ta oila quydagilar iborat bo'lgan: 1) Chernobl fojeasi nogironlari – 10; 2) Afg'on urushida halok bo'lgan jangchilar oilalari – 61 ta; 3) Ko'zi ojizlar jamiyati – 12; 4) Qizil Yarim oy jamiyati – 30; 5) Nogironlar jamiyati a'zolari – 40; 6) Ijtimoiy ta'minot bo'limi – 20; 7) Mahallalardagi kam ta'minlanganlar – 57 tani tashkil etgan [6; 102-b]. Yuqorida keltirilgan oilalarning har biriga sovg'a sifatida 230 ta qopda bepul oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan. Oilalarning har biriga 10 kg un, 5 kg guruch, 1 kg shakar, 2 dona sovun, 1 kg choy yetkazib berilgan. Jami 230 ta oila uchun umumiyoq miqdorda 2 tonna 300 kg un, 1 tonna 150 kg guruch, 230kg shakar, 460 dona sovun, 230 kg choy aholiga tarqatildi [6; 102-b].

Aholini ijtimoiy himoya qilishning yana bir usuli bu - narx-navolar ko'tarilishiga mos ravishda oylik ish haqi, stipendiya, nafaqa va pensiyalar miqdorini parallel ravishda oshirib borishdir. Bu davr oralig'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 29-iyundagi PF-615 sonlifarmoniga binoan yurtimizda 1993-yil 1-iyuldan boshlab mehnat haqi, pensiya, stipendiyalar miqdori oshirildi va eng kam ish haqi

miqdori oyiga 11250 so‘mni tashkil etdi [7; 208-b]. Bu davrda mamlakatimizda 1993-yil 1-noyabrdan boshlab so‘m kupon muomalaga kiritilgan. Navbatdagi ish haqi, stipendiya va pensiyalarning narhi 1994-yil 1-yanvardan boshlab 32450 so‘mni [8; 312-b], 1994-yil 1-martdan boshlab bu miqdor 45000 so‘mni, 1994-yil 1-iyunidan 75000 so‘mni tashkil etgan [9; 220-b]. Ya’ni eng kam ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdori narx-navolar o‘zgarishiga, ortishiga qarab oshirib borilgan.

Maqolada keltirilgan barcha ma‘lumotlarga asoslanib xulosa qiladigan bo‘lsak, davlatimiz tomonidan har doim aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanib kelayotganligini ko‘rish mumkin. Jamiyatimizdagi har bir qatlam, har bir ko‘makka muhtoj oila, inson davlatimiz himoyasida ekanligi buning yorqin isboti bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yhati.

1. Farg‘ona viloyat davlat arxivii. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 12-yig‘ma jild.
2. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 15-yig‘ma jild.
3. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 23-yig‘ma jild.
4. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 37-yig‘ma jild.
5. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 57-yig‘ma jild.
6. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 86-yig‘ma jild.
7. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 31-yig‘ma jild.
8. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 45-yig‘ma jild.
9. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 50-yig‘ma jild.